

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

---

## **FE'LLARDA OBYEKT VALENTLIGINING XARAKTERLANISHI**

Mirzayeva Surayyo

QarDUPI o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada obyektlarida harakat fe'llarida obyekt valentligining xarakterlanishi va ularning semantikasi haqida fikrlar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** fe'l so'z tarkumi, harakat fe'llari, ma'no, valentlik, qo'shimcha, semema.

## **CHARACTERIZATION OF OBJECT VALENCE IN VERBS**

Mirzayeva Surayyo

QarDUPI o'qituvchisi

### **Abstract**

In this article, opinions are expressed about the characterization of object valence in object action verbs and their semantics.

**Keywords:** Verb phrase, action verbs, meaning, valence, adverb, semema.

## **ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТНОЙ ВАЛЕНТНОСТИ В ГЛАГОЛАХ**

### **Аннотация**

В статье высказываются мнения о характеристиках объектной валентности глаголов объектного действия и их семантике.

**Ключевые слова:** глагольная группа, глаголы действия, значение, валентность, наречие, семема.

Til va nutq dialektik munosabatida so'z yetakchi o'rinni egallaydi. Ayni jarayonda, ayniqsa, fe'l so'zlar ularning ma'nosi, gapdagi o'rni, gapni tashkil qilishdagi ahamiyati, valentligi kabilalar bilan bog'liq qator tadqiqotlar maydonga keladi va kelmoqda. Obyektlarida obyekt valentligi zaruriy xarakterdadir. Ularning semantikasi tushum kelishigidagi harakat o'tuvchi predmetni ifoda etgan so'zni taqozo etadi. Sintaktik qurilmalarda obyekt aktanti muayyan harakat ta'siridagi predmed bo'ladi. O'timli fe'l to'g'ri obyekt valentligi namoyon etuvchisining, asosan, tushum kelishigida

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

kelishini talab qiladi. Bu bevosita semantik talabdan kelib chiqadi: tushum kelishikli so‘zda ifodalangan obyekt fe’ldan anglashilgan harakat bilan bevosita bog‘lanadi.<sup>1</sup> Shunga ko‘ra obyektlar harakat fe’llari obyekt valentligidagi kelishik qo‘shimchasi so‘z ma’nolarini bog‘lash vazifasini bajaradi. Ayrim vaziyatlarda obyekt aktanti -ga, - dan qo‘shimchalari bilan yoki qo‘shimchasiz ham shakllanishi mumkin. **Harakat fe’llarining obyekt valentligi holat fe’llarining obyekt valentligidan tubdan farq qiladi. Chunki holat fe’llarining obyekt aktanti asosida obyekt valentligi va kauzativlik yuzaga keladi, harakat fe’llarida esa bunday emas.** Obyektlar harakat fe’llari obyekt valentligi aktanti gapda deyarli vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Obyekt aktanti obyektlar munosabatni yuzaga keltiradi, aniqrog’i obyektlar fe’l gap qurilmasida qatnashadi, ya’ni “obyektlar fe’l harakatning vositasiz to‘ldiruvchi ifodalaydigan obyektga yo‘nalishini bildiradi”.<sup>2</sup> Obyektlar harakat fe’llari uchun obyekt valentligi zaruriy valentlik bo‘lib, uning ifodalovchilari ma’nosidagi semalar muhim ahamiyatga egadir. Harakat fe’llarining “ijro ifodalanuvchi” birlashtiruvchi semali fe’llarda obyekt valentligi zaruriy valentlikdir. Zero fe’l sememada ifodalangan harakat natijasida predmed-obyektlar yaratiladi, barpo etiladi, obyektlar bir-biriga biriktiriladi, bog‘lanadi yoki aksincha, bir- biridan ajratiladi, ularning holati, shakli, sathi, joylashuviga o‘zgartirish kiritiladi. Shunga ko‘ra harakat bevosita o‘tayotgan, ya’ni agensning ta’sirida o‘zgartirilayotgan obyektning gap qurilmasida qatnashishi zaruriy ahamiyat kasb etadi. Natijali ijroni ifodalovchi fe’llarni obyekt valentligini ularning farqlovchi semalari belgilaydi. Ya’ni ular aynan farqlovchi semalariga ko‘ra valentlikka ega bo‘ladi. Quyida ijro ifodalovchi fe’llarning ab’ekt aktantini tahlil qilish namunasini keltiramiz.

“Obyektni yaratish” farqlovchi semali to’qimoq fe’lining obyekti ip vositasida to‘qilib barpo etiluvchi (paypoq, sveter, ro‘mol, va h.k) so‘zlarda nomoyon bo‘ladi. Yasamoq fe’lining obyekt aktanti hunarmandchilik buyumlari (sandiq,beshik, karovat, ko‘zachalar va h.k), umuman, yasash orqali barpo etiladigan predmedlardan iboratdir. Tiklamoq, qurmoq, solmoq kabi fe’llarning obyekt valentligi vazifasida imorat, bino, ko‘prik, in (yoki uya), suv ombori, hovuz kabilarning nomi keladi. Obyektlar birikma “qurilish obyekti” klassemasiga ko‘ra hosil bo‘ladi: Do‘konni qurbanimizga endi o‘n besh kuncha bo‘lib qoldi (A.Qodiriy). Sattor akam bu yil imorat soldilar, shuning uchun hozircha ularni tinch qo‘yinglar(T.Malik).

<sup>1</sup>Rasulov R. O’zbek tilidagi holat fe’llari...97-bet.

<sup>2</sup>Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati.-Toshkent,2002, 73-bet.

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

**Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.**

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

“Obyektlarni bog‘lash” farqlovchi semali turmaklamoq, ulamoq, tugmoq, bog’lamoq, chandimoq, arqonlamoq, qantarmoq, jilovlamoq (ayn. tizg‘inlamoq ), kishanlamoq fe’lining obyekti aktanti ip arqon, tasma kabi vositalar yordamida bog‘langan shaxs (yoki boshqa jonli mavjudodlar), ayrim vaziyatlarda esa jonsiz predmedlardan iborat bo‘ladi: Hamrohi... samanni jilovlab oldi (M.Ismoilii). ...deb g‘unan qo‘yni og‘ilxonaning ustuniga qantarib qo‘ygan edi (A. Qodiriy). O‘g‘lim sigirni daraxtga arqonlab kelgin ( so‘zlashuv).

Belamoq fe’lining obyekt aktanti esa doimo bola( chaqaloq) so‘zidan iborat bo‘ladi: Noiloj yana bolamni beshikka belardim.

“Obyektlarni biriktirish” farqlovchi sxemali yelimlamoq, fe’lining obyekti yelimlanishi zarur bo‘lgan qog‘oz , chinni, plastmassa kabi buyumlarda nomoyon bo‘ladi: Qizgina, shu kitob varag‘ini yelimlab bering, iltimos (Y. Akram).

“Predmedning tik holatdan boshqa holatga o’tishi” farqlovchi semali ag‘anamoq, yiqilmoq, munkimoq, qulamoq fe’llariga orttirma nisbat qo‘srimchasi qo‘shilganidan so‘ng ularda obyekt valentligi yuzaga keladi. Obyekt aktanti shaxs, daraxt, devor va h.k.lardan iborat bo‘ladi: Hasharchilar kelib daraxtlarni ag‘anatdilar. Chakalakzordagi katta-kichik daraxtlarni yiqitib, majaqlab chiqqan tank...(Oybek).

“Obyektni muayyan adresatga yo‘llash” farqlovchi semali uzatmoq, bermoq, sotmoq, (ayn. pullamoq), otmoq, irg‘itmoq, itkitmoq, uloqtirmoq kabi fe’llarning obyekt aktanti sifatida shaxs nomlarini bildiruvchi so‘zlar ham kelishi mumkin.

Qiyoslang: G‘ulomjon... qamchini mingboshini qo‘lidan olib supaga irg‘itdi (M. Ismoilii) . Otasi kirasonib jahl ustida divanga o‘g‘lini ko‘tarib otib yubordi.

“Obyektni muayyan adresatga tarqatish yoki sotish” farqlovchi semada ulashmoq, taqsimlamoq, bo‘lmoq, tarqatmoq fe’llarning obyekt aktanti asosan ulashish, tarqatish mumkin bo‘lgan narsalar- non, kosadagi ovqat, boshqa xil oziq- ovqat mahsulotlari, sovg‘a- salom, uchun mo‘ljallangan turlicha predmedlarni ifodalovchi so‘zlarda nomoyon bo‘ladi: Sovg‘alar bolalarga taqsimlab berildi. Jamila yaqinroq kelib yig‘ilganlarga non ulashdi. (T.Malik).

Suzmoq, fe’li obyekt aktanti sifatida cheklangan so‘zlar bilan cheklangan so‘zlar bilan birikuvchi hosil qila oladi, birinchisi, turli taomlar nomini bildiruvchi so‘zlar bilan; ikkinchi qarta so‘zi bilan birinchi ma’noda obyektlarni muayyan idishlarga joylab, keyin tarqatish semasi, ikkinchisida darhol tarqatish semasi mavjud. Qiyoslang: Oyim sho‘rvani kosalarga suzib , dasturxonga olib keldi . → ... u sheriklarining javobini ham kutmay , qartalarni tez- tez suzdi (T. Malik). Mazkur farqlovchi semali sochmoq (ayn. Sepmoq ), sachratmoq, purkamoq fe’llarining obyekt aktanti, asosan, suyuq moddalarni ifodalovchi so‘zlarda reallashadi. Shuningdek gap qurilmalarida sochmoq

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

**Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.**

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

(ayn sepmoq ) fe'llarining obyekti sifatida urug'lik, don kabi so'zlar kelishi mumkin. Paypaslamoq, siypalamoq, silamoq, uqalamoq, ishqalamoq, tutmoq, siqmoq, qismoq, qashimoq kabi fe'llarining obyekt aktanti inson muchasi , ya'ni uning tana a'zosi nomlarini bildiruvchi so'zlarda (peshona , yuz, qo'l , oyoq , qorin, orqa kabi) nomoyon bo'ladi: Shu payt vazmin g'adir- budur bir qo'l Abrorning peshonasi aralash boshini sekin siypaladi (P. Qodirov) .Quruqshab , ajin bosgan yuzlarini ishqar ekan , yana niimadur demoqchi bo'ldi (Yo. Akram). To'lqin ...onasining peshonasini, sochlarini silay boshladi (N. Aminov). Shuningdek, paypaslamoq, tutmoq, ilmoq, ko'tarmoq, ushlarimoq kabi fe'lining obyekt aktanti turli predmedlarni anglatuvchi so'zlarda ham kuzatiladi: Ukam qizil koptogini mahkam tutganicha turaredi . Quvonch salomat otgan olmani arang ilib oldi (F. Musajonov). Pulni qumni, tuproqni ushlarimoq. Timdalamoq , tirnamoq , yumdalamoq , yulmoq, chimchilamoq , g'ijimlamoq, mijg'ilampoq , changallamoq , siqmoq, kabi fe'llarining obyekt aktanti sifatida ham insonning biror tan a'zosi qo'l , oyoq , qorin kabilarni bildiruvchilar qatnashadi. Ayniqsa timdalamoq, tirnamoq ,yumdalamoq ,yulmoq fe'llari ko'p hollarda obyekt aktanti sifatida yuz so'zi bilan birikadi: O'z yuzini asabiy timdalayotgan onasiga....(Yo.Akram). Shirmonxon chorpojadan sakrab tushib, Adolatning yuzini yumdalay ketdi. Xususan, bu harakatlarni ko'roq ayollar amalga oshiradilar: Boplab kundoshimning yuzini yulib keldim. (F.Usmonova).

Shapatilamoq, urmoq, tushurmoq, solmoq, mushtlamоq, savalamоq, kaltaklamоq, (any. tayoqlamoq), qamchilamoq, do'pposlamоq, chovoqlamoq, tikmoq, sanchmoq, suzmoq kabi fe'llarning obyekt aktanti jonli mavjudodlar tanasini bildiruvchi so'zlarda namoyon bo'ladi: ... sovuq ter chiqqan peshonasiga shapatilladi (N.Aminov). .... bu mayor tartib buzuvchining gardaniga ayamay urib qolardi Qora Ahmadning basharasiga ko'ksiga qorniga to'qmoqday mushtumi bilan to'xtovsiz tushira boshladi. Misollardan ko'rinaridiki, shapatilamoq,urmoq, tushirmoq, solmoq, mushtlamоq, kirgizmoq, tiqmoq,sanchmoq kabi fe'llarning obyekt aktanti -ga jo'naliш kelishigi qo'shimchasi bilan shakllangan. Savalamоq, kaltaklamоq, qamchilamoq, do'pposlamоq, chavoqlamoq, suzmoq fe'llarining obyekti aktanti esa, asosan, tushum kelishigi qo'shimchasi bilan shakllangan bo'ladi: Qo'shnimiz o'g'lini rosa savaladi. Yuk ortib,otni qamchilab, zidlab qaytargan...(Oybek). Akalari meni rosa do'pposladi. Ammo men ularga tegmadim (T.Malik). Men uni chavoqlab tashlayman! Buni fe'llarning ma'no tuzilishi bilan izohlash mumkin: -ga bilan shakllangan obyekt fe'l ma'nosidagi harakatning aynan qayerga yo'nalganligini aniq ifodalaydi, savalash, kaltaklash, qamchilash, do'pposlash va h.k. harakatlar umuman jonli mavjudotga qaratiladi, uning aniq qismiga emas. Shunga ko'ra obyekt aktantlari u yoki bu kelishik

# International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

---

qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Chertmoq, taqillatmoq fe'llarining obyekt aktanti qattiq jismlarni bildiruvchi so'zlarda reallashadi. Chunki bu harakatlar qattiq jismlarga berilgan keskin zarbani ifodalaydi: Bashirjon joyiga qaytib o'tirdi, kreslo suyang'ichini qattiq chertdi (N.Aminov).

Tepkilamoq, tepmoq, niqtamoq fe'llarining obyekt aktanti jonli mavjudotni yoki ayrim predmetlarning sirtini anglatuvchi so'zlarda namoyon bo'ladi. Gap qurilmalarida obyekt aktanti ko'pincha **uni** kishilik olmoshida ifodalanadi. Bunda ham, ko'rsatilganidek, obyekt aktanti harakat qayerga aniq yo'nalganligini ifodalash zaruratiga qarab, -ga yoki -ni qo'shimchasi oladi. Qiyoslang: Chaqqon sakrab turdi-da, ikkala oyog'i bilan uning ko'kragiga mo'ljallab tepdi (T.Malik).

Bosmoq, surgamoq, sudramoq, tortmoq, boshlamoq, yetaklamoq, turtmoq, siltamoq, surmoq, itarmoq kabi fe'llarning obyekt aktanti jonsiz va jonli mavjudotlarni (yoki ularning tana a'zolarini) bildiruvchi so'zlarda ifodalanadi va gap qurilmalarida, asosan, -ni qo'shimchasi bilan shakllanadi: Mening qizim yugurib kelib akasini quchoqlab oldi. Meni o'z holimga qo'ymay, uyimdan nariroqqa surgab ketishdi (so'zlashuv). Ko'rindiki, ushbu misollarda agensning jismoniy ta'sir harakati obyektga (jonli mavjudotlar-inson, jonivor) bevosita o'tgan, uni o'z ta'siriga olgan.

Obyekt ifodalovchisining –ga kelishigi bilan shakllanishining yana bir sababi quyidagicha izohlanadi. Ertalab kimdir sekin yelkamga turtayotganini payqab qoldim (O'.Hoshimov). Ushbu gapdagi turtmoq fe'lining obyekt aktanti yelkamga so'zi bilan, u inson tanasining bir qismini bildiradi. To'liq holda obyekt aktanti mening yelkam shaklida bo'ladi va butunning bo'lagini anglatadi. Agar butunning o'zi obyektni ifodalasa, u quyidagicha bo'ladi: meni turtdi, ya'ni vositasiz to'ldiruvchini ifodalaydigan so'z tushum kelishigida keladi. Demak, butunning qismini bildiruvchi obyekt aktanti ham jo'naliш kelishigida bo'lishi mumkin. Obyekt aktantining chiqish kelishigida kelishi ham xuddi shu qonuniyatga asoslanadi. Qiyoslang: shokoladdan uzatdi. Bunda shokaladning hammasi emas, shokaladning bittasi uzatiladi, degan ma'no anglashiladi.<sup>3</sup>

Kurashmoq, bellashmoq, yoqalashmoq, olishmoq kabi fe'llarda obyekt valentligi mavjud emas. Zero, bunday fe'llar qatnashgan gaplarda kontragens valentligi yuzaga keladi. Bunda agenslar bir-birlari qarshi harakat qiladilar, demak, ular bir-birlariga nisbatan obyekt hamdir. Har ikki agensning harakati bir-biriga o'tadi, Ular o'zaro

---

<sup>3</sup> G'ulomov A. Fe'l. Hozirgi zamон о'zbek тили kursidan materiallar.-Toshkent, 1954, 55-bet.

# **International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science**

**Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10<sup>th</sup>, 2022.**

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)

harakat ta'sirida bo'lishadi: Bugun tongda Rustam polvon Salim polvon bilan kurashadi. Men ertaga jar yoqasida raqibim bilan bellashaman. Ukam bilan rosa yoqalashibmiz.

Xullas natijali ijroni ifodalagan harakat fe'llarining obyekt valintligini shu tarzda tavsif qilish mumkin.

1. Obyektli harakat fe'llari uchun obyekt valentligi zaruriy hisoblanadi.

Obektsiz harakat fe'llarida esa obyekt valentligi mavjud emas . Ularga orttirma nisbat qo'shimchasining qo'shilishi bilan obekt emas balki ko'p vaziyatlarda patsiens valentligi yuzaga keladi.

2. Harakat fe'llarining "natijali ijroni ifodalovchi " birlashtiruvchi semali fe'llarda obyekt valentligi zaruriydir . Shunga ko'ra natijali ijroni ifodalovchi barcha harakat fe'llari o'z farqlovchi semasiga , shuningdek , nutqiy vaziyatning talabiga ko'ra aktantiga ega bo'ladi . Ishda , hajimni chegaralash maqsadida , ayrim natijali ijo ifodalovchi fe'llarning obyekt aktanini tavsif qilish namunasi keltirildi . Natijali ijroni ifodalovchi fe'llarning obyekt aktanti hayotiy ehtiyojlar uchun zaruriy bo'lgan turli predmetlar, ba'zan shaxs ( jonli mavjudot) nomlarini bildiruvchi so'zlarda kuzatiladi.

3. "Natijasi mavhum ijroni ifodalovchi " birlashtiruvchi semali fe'llarning obyekt aktanti vazifasida uy , xona ichidagi muayyan predmedlarni ( ayniqsa, sandiq, quti, shkaf, tortma, tumbichka,) predmadlarning to'plangan uyumini bildiruvchi so'zlar keladi . Bunda agens obyektga faol ta'sir qiladi, uning harakati obyektga o'tadi, amma ijo natijasi mavhumligicha qoladi.

4. "Og'iz bo'shlig'ida bajarilayotgan harakatlar" birlashtiruvchi semali fe'llarning obyekt valentligi farqlovchi semalariga ko'ra reallashadi. "Yegulik va suyuqliklarni iste'mol qilish " farqlovchi semasiga ega fe'llarning obyekt aktanti fe'l ma'nosiga mutanosib oziq -ovqat mahsulotlari, ta'om nomlari , suyuqliklarni bildiruvchi so'zlarda nomoyon bo'ladi .

Harakat fe'llarining obyekt aktanti, asosan –ni qo'shimchasi bilan shakllanadi. Ammo uning – ga, – dan qo'shimchalari bilan qo'llanishi ham kuzatiladi. Obekt aktanti gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi . O'zbek tilida harakat va holat fe'llarining semantikasi va valentligini tadqiq qilish asosida amaliy foyda keltiruvchi kompyuter dasturlarini yaratish mumkin. Shunga ko'ra kompyuter dasturlarini yaratish asoslarini belgilash g'oyat dolzarb vazifadir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari. Toshkent-2009.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent,2002.
3. G'ulomov A. Fe'l. Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar.-Toshkent, 1954.